



Qurilish ishlari

RAQAMLAR:


- Qurilish-montaj ishlari hajmi – 818,8 mlrd. so‘m
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi – 15,8 foiz
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar – 56,0 foiz
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi – 28,2 foiz

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 818,8 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,5 foizni tashkil etdi va 1,5 foiz punktga oshdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 129,0 mlrd. so'mni yoki 93,7 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 foiz punktga kamaydi.




Qurilish ishlari, mlrd. so‘m




Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 795,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 97,2 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 foiz punktga oshdi.

2018 yil yanvar-iyun oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Jami qurilish pudrat ishlari tarkibidagi “Bino va inshootlar qurilishi” faoliyat turi boʻyicha 549,3 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi, va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 11,9 foiz punktga koʻpaydi. Shuningdek, “Fuqarolik ob'ektlari qurilishi” faoliyat turi boʻyicha 96,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 9,2 foizga punktiga kamaydi, “Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari” faoliyat turi boʻyicha 172,8 mlrd. soʻmga bajarilib, yoki oʻtgan davrga nisbatan 8,7 foiz punktga kamaydi.

Qurilish ishlari tarkibi

Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish texnik qayta qurollantirish 597,1 mlrd. so‘m


Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari 221,7 mlrd. so‘m



Jami qurilish ishlari hajmida yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik jixotdan qayta qurollantirish ishlari hajmi 597,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 221,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

O‘tgan yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish ishlari 11,7 foiz punktga ko‘paydi. Kapital, joriy ta‘mirlash va boshqa pudrat ishlari hajmi esa 12,2 foiz punktga kamaydi.

2018 yil yanvar-iyun oylari uchun qurilish ishlari



Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish

statistikasi bo‘limi

Nashr uchun mas‘ul: Z.Seytimbetova

(0361) 222-75-91